O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI
SAMARQAND TUMANI HOKIMINING

# Q A R O R I

140300, Samarqand t., Gulobod qo’rg’oni.

2022 - yil 8 - sentabr 224-7-103-Q/22 Samarqand tuman hokimligi

## Samarqand tumanidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari atrofida yo‘l belgilarini o‘rnatilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 172-son qarori talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, tuman IIB YHXBning 2022-yil 9-avgustdagi 52/1670-sonli hamda tuman xalq ta’limi bo‘limining 2022-yil 9-avgustdagi 558-sonli xatlarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. Samarqand tumani IIB YHXBning 2022-yil 9-avgustdagi 52/1670-sonli hamda tuman xalq ta’limi bo‘limining 2022-yil 9-avgustdagi 558-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand tumanidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari atrofida ilovaga muvofiq tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

3. Samarqand tumani ichki ishlar bo‘limi (A.Raxmatov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (F.Djumayev) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (S.Aliyev) qonunchilikda belgilangan tartibda umumiy o‘rta

ta’lim maktablari atrofida tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Samarqand tumani ichki ishlar bo‘limi (A.Raxmatov)ga ushbu hududlarda harakatlanuvchi transport vositalari tomonidan mazkur yo‘l belgilariga qat’iy rioya qilinishini hamda harakat xavfsizligini ta’minlash choralari ko‘rib borish vazifasi topshirilsin.

5.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari (F.Ganiyev, O.Abdullayev) zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **S.Usmanov**

Samarqand tuman hokimining
2022 yil 8 sentabrdagi
224-7-103-Q/22-son qaroriga
1-ilova

# Tumandagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari atrofiga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari manzillari ro‘yxati

| T/r | Maktab raqami | Manzili | Yo‘l belgisi | Transport vositalarining harakatlanish tezligi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 8-maktab | “Qorasuv” MFY | 1.21(tezlikni vaqtinchalik cheklash) | 30 km. soat |
| 2 | 10-maktab | “Xo‘ja Ahrori Vali” MFY | 1.21(tezlikni vaqtinchalik cheklash) | 30 km. soat |